

Futbol – millionlar o'yini

“Yoshlar haftaligi”ning navbatdagi musobaqasi sportning eng mashhur turi futbol bo'yicha bo'ldi. Chaqqonlik, tezkorlik va jamoa bo'lib ishlashni talab etuvchi bu sport o'yini talaba yigitlarimizning nafaqat, jismonan balki jamoaviy ahilliklarini ham sinovdan o'tkazdi. Yakuniyatijalar esa quyidagi yo'sinda bo'y ko'rsatdi.

“Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti jamoasi 3 - o'rinni, “Gidrotexnika qurilishi” fakulteti jamoasi 2 - o'rinni, “Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash” fakulteti jamoasi esa 1 - o'rinni egallashdi. G'oliblar haftalik taqdirlash marosimida institut rahbariyati, Yoshlar ittifoqi hamda institut kasaba uyushmasi tomonidan esdalik sovg'alar bilan taqdirlanishdi.



Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov